

## RINOLALIYA NUTQ NUQSONI HAQIDA BILASIZMI?

*Nizomiy nomidagi TDPU (PhD)*

*Gapurova Dilnoza Tadjibayevna*

*2-kurs logopediya yo'nalishi talabasi*

*Muhammadsharipova Nafisa*

### **Annotatsiya:**

Ushbu maqolada rinolaliya nutq nuqsonining turli shakllari, uning o'ziga xos xususiyatlari va uning kelib chiqish sabablari haqida ma'lumotlar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** Rinolaliya, rinolaliya nutq nuqsoni, nutq buzilishlari, ochiq rinolaliya, yopiq rinolaliya, aralash rinolaliya, tug'ma yoriqliklar, tanglay, lab yoriqliklari.

**Ключевые слова:** Ринопалия, ринопалия дефект речи, нарушения речи, открытая ринопалия, закрытая ринопалия, смешанная ринопалия, врожденные расщелины, расщелина неба, расщелина губы.

**Key words:** Rhinolalia, rhinolalia speech defect, speech disorders, open rhinolalia, closed rhinolalia, mixed rhinolalia, congenital clefts, cleft palate, cleft lip.

Rinolaliya (grekcha) so'zdan olingan bo'lib "rhinos" burun, "lalia" nutq degan ma'noni anglatadi. Rinolaliya bu- nutq apparatining anatomic va fiziologik kamchiliklari sababli ovoz tembri va tovushlar talaffuzidagi buzilishdir. Rinolaliyani o'rganishda bir qancha muammolar yuzaga kelgan. Uning bunday nomlanishi, qanday omillar sababli kelib chiqishi va qanday korreksion ishlar olib borish to'grisida bir qancha qiyinchiliklar yuzaga kelgan. Dastlab rinolaliyani o'rganishni shifokorlar boshlab berishgan. Rinolaliyani bartaraf etishda turli soha vakillari xirurg- stomtologlar, ortodontlar, psixonevrologlar ham muammolarga duch kelishgan. Shifokorlar tomonidan olib borilgan jarrohlik amaliyotlaridan so'ng ham nutqdagi kamchiliklar bartaraf etilmagan. Ular bu holatni operatsiyadan so'nggi chandiqlar sababli artikulyatsion apparat a'zolarining kam harakatchanligi natijasidir deb qarashadi. Ammo bu holatni logopedning bir qancha olib boriladigan korreksion mashg'uloti orqali bartaraf etish mumkin degan xulosaga keladilar. Rinolaliyada nutq kechikib rivojlanadi. Rinolalik bolalarda birinchi so'zlar ikki yoshda va undan keyin paydo bo'ladi. Nutq o'ziga xos sifatli xususiyatlarga ega bo'ladi. Aynan bu toifadagi shaxslarda impressiv nutq ekspressiv nutq ustidan dominantlik qiladi, ya'ni ichki nutqi tashqi nutqdan birnecha marotaba yaxshi rivojlangan bo'ladi. Bunday turdagi nuqsonga ega bo'lgan shaxslarda nutqning kam tushunarlilik holati ham alohida ko'zga tashlanadi. Og'iz bo'shlig'ida tilning nuqsonli holati natijasida undosh tovushlar

til uchi holatining o'zgarishi va yuz muskullarining ortiqcha faollashuvi hisobiga hosil bo'ladi. Til uchi holatini bu kabi o'zgarishlar nisbatan doimiy bo'lib ma'lum bir tovushlarning artikulyatsiyasi bilan o'zaro munosabatda bo'ladi. Bemorlar uchun bir qancha undosh tovushlarni talaffuz qilishda qiyinchiliklar yuzaga keladi, ya'ni l, t, ch, j va boshqalar bo'lishi mumkin. Bu kabi tovushlarni talaffuz qilishda yuqori tishlar alveolar oldida to'siqni paydo qilgan holatda talaffuz qilish talab qilinadi. Rinolalik shaxslar esa bu holatni bajara olishmaydi. Rinolalik nutqning tinglovchi uchun umumiy xarakteristikasi-burun ottenkasi hirillashgan bo'ladi. Ba'zida rinolaliklarning nutqidagi artikulemlar normaga juda yaqin bo'ladi lekin bu holat tinglovchi tomonidan nuqsonli deb idrok etiladi. Chunki biz bilamizki Rinolaliyada nutqiy talaffuz ya'ni tovushlar talaffuzi turg'un buzilgan bo'ladi. Bu turdagi nuqsonga ega shaxslarda psixik buzilishlar ham kuzatiladi, ya'ni uyalish, ta'sirlanish, odamlarga qo'shilmaslik, shaxslararo munosabatlarning uzilishi kabi kamchiliklar ham yuzaga kelishi mumkin. Shunga binoan rinolaliyaning ham o'ziga xos daraja va shakllari mavjud. Bular ochiq rinolaliya, yopiq rinolaliya, aralash rinolaliya. Bu shakllarni bir biridan ajratish uchun og'izni ochgan holda, artikulyatsion nutq apparati ko'zdan kechiriladi. Rinolaliyani xillarini aniq bilib olish uni bartaraf etishning yo'llarini to'g'ri belgilab olishga imkon beradi. Agarda bu shakllarni yaxshi farqlamay turib bolada korreksion mashg'ulotlarni olib borilsa, bu bolaga foyda berishning o'rniga zarar keltirishi mumkin. Biz bu shakllarni alohida differentsiatsiya qilgan holda ko'rib chiqamiz.

**Ochiq rinolaliya.** Rinolaliyaning ochiq formasiga og'iz bo'shlig'ida hosil bo'luvchi tovushlar dimog'da talaffuz qilinadi. Ochiq rinolaliya ham o'z navbatida ikki turga bo'lib o'rganiladi, ya'ni organik va funksional. Organik ochiq rinolaliyaning o'zi ham ikkita formaga ajratiladi, tug'ma va orttirilgan. Tug'ma rinolaliyaning sabablari har xil, masalan onaning homiladorlik davrining dastlabki uch oyligida ya'ni homilaning aynan yuz qismi shakllanayotgan davrida turli infeksiyon kasalliklar yoki kuchli shamollashi, moddalar almashinuvining yaxshi kechmasligi, turli moddalar yetishmasligi, rezus omilning to'g'ri kelmasligi, homiladorlik payitida turli virusli kasalliklar gepatit, qizilcha, qizamiq, suvchechak, ko'k yo'tal, tepki va boshqalar bunga sabab bo'lishi mumkin. Orttilgan ochiq rinolaliya esa bola tug'ilgandan so'ng dastlabki yoshlarida ya'ni erta bolalik davrida kuchli shamollashlar, turli yuqumli kasalliklar qizamiq, qizilcha, tepki, suvchechak, yoki bo'lmasam difteriya, adenoidlar, papiloma, papilomatozlarning rivojlanishi, turli baxtsiz hodisalar tufayli turli xil jarohatlanishlar bunga misol bo'lishi mumkin.

Funksional ochiq rinolaliya. Rinolaliyaning bu turi bolalarda ovozning hosil bo'lishida yumshoq tanglayning harakatining sustligi, asab kasalliklari, adenoidlar olib tashlangandan so'ngi holatlar, difteriya va boshqa holatlar natijasida yuzaga

keladi. Eshitish funksiyasining buzilishi, qulog'i yaxshi eshitmaydigan bolalarda o'z nutqini nazorat qilaolmaslik duduqlanuvchilarda og'iz bo'shlig'idagi o'zgarishlar tufayli yumshoq tanglayning ko'tarila olmasligi ham funksional rinolaliyaga sabab bo'lishi mumkin.

**Yopiq rinolaliya.** Yopiq rinolaliya nutq tovushlarini talaffuz qilish vaqtida fiziologik burun rezonasining pasayishi natijasida yuzaga keladi. Yopiq rinolaliyaning muxim belgilaridan biri bu turdagi kamchiligi bo'lgan shaxslar doimo og'zini ochgan holda yuradi. Yopiq rinolaliya ham tug'ma va orttirilgan bo'lishi mumkin. Yopiq rinolaliyaning ikkita shaklini; organik va funksional turlarini ajratish mumkin. Organik hiliga tomoq, burun-halqum bo'shlig'I, burun bo'shlig'idagi turli xil o'simtalar sabab bo'lishi mumkin. Funksional yopiq rinolaliya esa bolalarda ko'p uchrab turadi. Bunda burun bo'shlig'ining yaxshi o'tkazuvchanligida va burundan nafas olish buzilmagan holda kuzatiladi. Bunda burun tembri va unli tovushlar talaffuzi qo'pol buzilgan bo'ladi. Yopiq rinolaliyani M. Zeeman ham o'z navbatida ikkita formasini farqlaydi bular; oldingi yopiq va orqa yopiq rinolaliya.

Oldingi yopiq rinolaliya: burun devorining qiyshiqligi, burun bo'shlig'idagi o'smalar papilomalar, papilamatozlar natijasida yuzaga keladi.

Orqa yopiq rinolaliya: burun-halqum yo'lida poliplarning, fibroma, adenoitlarning ko'payib ketishi natijasida yuzaga keladi.

**Aralash rinolaliya:** Bu turda burun rezonasining patalogik kamayganlik holtida havoning burundan chiqib ketishi kuzatiladi. Rinolaliyaning bu shakli juda og'ir bo'lib bunda rinolaliyaning ham ochiq ham yopiq holati birgalikda kelgan holda kuzatiladi. Ya'ni yuqorida aytib o'tkanimizdek bunda burun yo'li to'silib qolgan, ham tanglay-halqum pardasida ham yetishmovchiliklar yuzaga keladi. Aralash rinolaliya ham organik, ham funksional xillarga bo'linadi.

Organik turiga yumshoq tanglayning kaltaligi yoki falajligi sabab bo'lishi mumkin.

Funksional turiga esa tanglay – halqum yorig'ining funksiyasi o'zgarishi natijasida burun yo'lining to'silib qolishi sabab bo'ladi.

Rinolaliyani davolashda bolaning individual xususiyatidan kelib chiqqan holda qaysi bir kamchilik ovoz tembirini ko'proq buzib manqalikka ko'proq sabab bo'layotganini aniqlash zarur hisoblanadi. Bu turdagi nuqsonli bolalarni nutqiy, jismoniy ham ruhiy tarafdin birgalikda rivojlantirib borish bir muncha qiyin hisoblanadi. Rinolalikalarda dastlab logopedik ishni unli tovushlarni nutqqa qo'yishdan boshlanadi. So'ngra yumshoq tanglay harakatchanligini rivojlantirish bilan birgalikda boshqa tovushlar qo'shib boriladi. Mo'rash imitatsiyasidan ham keng foydalaniladi. Bunday turdagi bolalar bilan individual ish olib boorish metodikasi alohida ahamiyatga ega.

Xulosa qilib shuni aytmqchimanki har xil turdagi yoriqliklarning barchasi bola organizmining shakllanishi va ruhiy jarayonlarining rivojlanishiga ta'sir qiladi va bu ta'sir salbiy harakterda ifodalanadi. Biz bolaga avvalam bor to'g'ri ruhiy dalda bera olishimiz kerak bo'ladi. Biz nuqsonni korreksiyalash uchun turli metodikalardan keng foydalanamiz. Bu esa bizga bolaning individualniy xususiyatlarini bilib olishga va nuqsoni tez va to'g'ri bartaraf etishimizga yordam beradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. M. Ayupova Toshkent 2007- yil.
2. Mo'minova L. R "Logopsixalogiya"
3. Logopediya L. S. Volkova, S.I. Shaxovskaya. Izd- vo "Vlados" M, 2002.